Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







MUNIS XORAZMIY SHE'RIYATIDA ISTIORAVIY OBRAZLAR VA LIRIK KECHINMA

Sadullayeva Darmonjon
Urganch davlat universiteti magistri

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Munis Xorazmiy lirikasida istioraning qo‘llanish xususiyatlari va poetik obraz yaratishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shoir ijodidagi gul, guliston, g‘azola, sham’, parvona, quyosh, oy, tig‘ va dom kabi istioraviy obrazlarning badiiy vazifasi baytlar asosida yoritiladi. Shuningdek, istioraning yor qiyofasi, oshiqning ishqiy kechinmalari, hijroni va ruhiy iztirobini ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Tahlil natijasida istioraning Munis lirikasida nafaqat badiiy bezak, balki lirik mazmunni shakllantiruvchi muhim vosita ekani aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Munis Xorazmiy, lirika, istiora, poetik obraz, ishqiy kechinma, lirik qahramon, badiiy tasvir.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются особенности употребления метафоры в лирике Муниса Хорезми и её роль в создании поэтического образа. На материале бейтов рассматривается художественная функция таких метафорических образов, как цветок, розовый сад, газель, свеча, мотылёк, солнце, луна, меч и силок. Особое внимание уделяется значению метафоры в изображении облика возлюбленной, любовных переживаний, разлуки и душевных страданий лирического героя. В результате анализа определяется, что метафора в лирике Муниса является не только средством художественного украшения, но и важным способом формирования лирического содержания.

Ключевые слова: Мунис Хорезми, лирика, метафора, поэтический образ, любовные переживания, лирический герой, художественная образность.

ABSTRACT. This article analyzes the use of metaphor in the lyrics of Munis Khorezmi and its role in creating poetic imagery. The artistic functions of metaphorical images such as the flower, rose garden, gazelle, candle, moth, sun, moon, sword, and snare are examined through selected couplets. Particular attention is paid to the significance of metaphor in depicting the beloved’s appearance, love experiences, separation, and the spiritual suffering of the lyrical hero. The analysis demonstrates that metaphor in Munis’s lyrics functions not only as an artistic embellishment but also as an important means of shaping lyrical content.

Keywords: Munis Khorezmi, lyrics, metaphor, poetic imagery, love experiences, lyrical hero, artistic expression.

Mumtoz o‘zbek she’riyatida badiiy tasvir vositalari shoir fikrini obrazli ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Shunday vositalardan biri istiora hisoblanadi. “Istiora arabcha so‘z bo‘lib, “biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq” degan ma’noni ifodalab, adabiy asarda so‘zni o‘z ma’nosidan boshqa bir ma’noda, aniqrog‘i uni

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash san'ati hisoblanadi."[1]Natijada oddiy fikr badiiy mazmun kasb etib, tasvirning ta'sirchanligi ortadi. Ayniqsa, ishqiy lirika namunalarida istiora yordamida yorning go'zalligi, oshiqning muhabbati, iztirobi va visolga bo'lgan intilishi yanada ta'sirli ifodalanadi.

Munis Xorazmiy lirikasida ham istiora san'atidan keng foydalanilgan. Shoir yorning ruxsorini gul, guliston, sham', quyosh va oy kabi obrazlar bilan bog'laydi. Oshiqning holati esa parvona, qush, sayd kabi obrazlar orqali ifodalanadi. Bunday tasvirlarda istiora faqat tashqi go'zallikni ko'rsatish uchun emas, balki lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochib berish uchun ham xizmat qiladi. Masalan, sham' va parvona obrazlari orqali oshiqning yor atrofida sarson bo'lishi, tig' va yuz pora obrazlari orqali esa uning ruhiy iztirobi ifodalanadi.

Munis Xorazmiy lirikasida istiora obraz yaratishning faol vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shoir yorning tashqi qiyofasi va unga bo'lgan oshiqona munosabatni bevosita tasvirlash bilan cheklanmay, turli narsa va hodisalar nomini ko'chma ma'noda qo'llash orqali poetik obrazning mazmunini kengaytiradi. Jumladan:

"Shavqi **gul ruxsor**ing urar har sori yuz xor,
Ne ayb ko'ngul aylasa bulbul kibi nola."[2]

Baytda yorning yuzi "gul" obraziga bog'lanib, uning go'zalligi va latofati o'simlik dunyosiga xos obraz orqali ifodalanadi. "Gul ruxsor" birikmasida ruxsorning gul sifatida tasavvur qilinishi yor chehrasining nafisligi, tarovat va jozibasini kuchaytiradi. Shoirning bunday ko'chma ifodaga murojaat qilishi tasvirni oddiy tavsifdan chiqarib, unda estetik baholash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, baytning ikkinchi misrasidagi "bulbul kibi" ifodasi ochiq tashbeh bo'lib, oshiq ko'nglining nolasini bulbulning fig'oniga qiyoslaydi. Demak, bir baytning o'zida istioraviy va tashbehiy ifodalar yonma-yon kelib, yor go'zalligi hamda oshiqning unga munosabatini bir butun poetik manzarada ifodalashga xizmat qilgan.

"Ruxsoring erur **husn gulistoni**, ko'zungdur
Gulshanlar aro o'ynag'uchi **g'azola**."[3]

Bu baytda yorning ruxsori "husn gulistoni" sifatida tasavvur qilinadi, ko'z esa shu gulshan ichida o'ynab yuruvchi "g'azola" obraziga ko'chiriladi. Ayniqsa, ko'zning g'azola nomi bilan berilishi e'tiborga loyiq. Shoir ko'zni shunchaki go'zal yoki jozibali deb ta'riflamaydi, balki uning jonli va harakatchan mavjudot sifatida ko'rsatishga harakat qiladi. Natijada ko'zning maftunkorligi, sho'xligi va o'ziga tortuvchi xususiyati bilvosita anglashiladi. Mazkur baytda obrazlar o'rtasidagi munosabat ham muhim ahamiyat kasb etadi: ruxsor – guliston, ko'z – g'azola. Shu tariqa yorning chehrasi yaxlit bir gulshan manzarasiga aylantiriladi, ko'z esa ana shu manzaradagi harakatchan obraz sifatida gavdalanadi. Istiora bu o'rinda faqat tashqi go'zallikni bezash uchun emas, balki yor siymosini tasavvurda jonlantirish uchun xizmat qilgan.

Munis Xorazmiy mazkur baytda ishqiy kechinmani istiora asosidagi sham' va parvona obrazlari orqali ifodalaydi:

---

[1] Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –T.:Sharq, 1998. –B.53
[2] Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.40
[3] Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.40

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







"Mehri ruxsoring erur bir **sham'**kim evrulgali,
Boshingga **parvona**lig' aylar mahi tobon sanga..."[4]

Baytda yorning ruxsori sham'ga istioraviy tarzda ko'chirilgan. Sham'ning yorqinligi va maftunkorligi yor jamolining oshiq qalbiga ta'sirini ifodalasa, parvona obrazi oshiqning yor atrofida giryon-u sarson bo'lishini anglatadi. Parvonaning sham'ga intilishi kabi oshiq ham yor jamolidan uzoqlasha olmaydi. Shu jihatdan sham' va parvona obrazlari orqali lirik qahramonning kuchli ishqiy mayli, maftunligi va ruhiy ojizligi ochiladi. Demak, istiora bu baytda shunchaki bezak vositasi emas, balki lirik kechinmani obrazli ifodalash va uning ruhiy ta'sirchanligini kuchaytirish vositasi vazifasini bajargan.

Munis Xorazmiy mazkur baytda oshiqning ishq iztirobini istioraviy obraz orqali ifodalaydi:

"Bedilekim ishqing ichra yo'qtur osoyish anga,
Qon yoshimdin surxro'y o'lmoqdur oroyish anga."

Baytda "qon yosh" va "surxro'y" obrazlari oshiqning ruhiy iztirobini kuchaytirishga xizmat qiladi. Oshiqning tinimsiz yig'isi natijasida yuzi qonga bo'yalgandek qizarishi "surxro'y bo'lmoq" tarzida ifodalanadi. Bu holat uning ishq yo'lidagi azob-uqubatini tashqi belgiga aylantiradi. Ayniqsa, "oroyish" (bezak) so'zining qo'llanishi diqqatga sazovor: oshiqning yuzi uchun bezak vazifasini go'zallik emas, balki qonli yosh bajaradi. Shu tariqa shoir odatiy go'zallik tasavvurini o'zgartirib, iztirobni "bezak" sifatida talqin qiladi. Bu istioraviy tasvir lirik qahramonning ishqdagi bedilligi, osoyishtalikdan mahrumligi va ruhiy azobini ta'sirchan ochib beradi.

Boshqa baytda shoir oshiqning yor zulmi tufayli kechirayotgan ruhiy iztirobini "tig'" va "yuz pora" obrazlari orqali ifodalaydi:

"Olib ko'nglumni qilding **zulm tig'i** birla yuz pora,
Bu ishdan bo'ldi ma'lumimki, yo'q sendek sitamkora."[5]

Zulm tig'i istiorasi orqali yorning ozor beruvchi munosabati qurol sifatida tasavvur qilinadi. "Ko'nglimni yuz pora qilish" esa jismoniy jarohat emas, balki oshiq qalbining kuchli ruhiy iztirobdan parchalanishini bildiradi. Shu tariqa tashqi jismoniy jarohatga oid "tig'", "pora qilish" tushunchalari ichki ruhiy holatni ifodalashga ko'chiriladi. Ikkinchi misradagi "sitamkora" esa yorning zulmkorligini kuchaytirib, lirik qahramonning alam va hayratini namoyon etadi. "Bu ishdan bo'ldi ma'lumim" ifodasi orqali oshiq yorning tengsiz darajadagi jafokor ekanini anglab yetadi.

Munis Xorazmiy ishqiy lirikasida oshiqning ruhiy holatini obrazlar orqali ifodalashga alohida e'tibor beradi.

"Jazbi kamandi lutfing **jon saydi**g'a erur dom,
Jonim qushini, jono, sayd et bu **dom** birla." [6]

Birinchi misradagi "jazbi kamandi lutfing" birikmasida yorning lutfi kamandga, ya'ni o'ziga tortib, band etuvchi vositaga ko'chirilgan. Shu orqali mahbubaning lutf-u iltifoti oshiqni rom etuvchi kuch sifatida tasavvur qilinadi. "Jon saydig'a" va "dom"

[4] Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.49
[5] Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.56
[6] Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.57

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







obrazlari esa bu istiorani rivojlantiradi: yorning jozibasi domga, oshiqning joni esa saydga aylantiriladi. Demak, ishq inson irodasini o‘ziga bo‘ysundiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi misradagi “jonim qushini” ifodasi tasvirni yanada chuqurlashtiradi. Qush erkin parvoz qilishi mumkin, ammo domga tushgach, ixtiyoridan mahrum bo‘ladi. Bu obraz orqali oshiqning yor lutfiga maftunligi va o‘zini uning ixtiyoriga topshirishga tayyorligi ifodalanadi.

Munis Xorazmiy she’riyatida oshiqning yor visoliga intilishi, hijron va iztirobini tabiat hodisalari bilan bog‘liq istioraviy obrazlar ham uchraydi:

“To yuzigga ul **quyosh** chekti niqob uzra niqob,
Dudi ohimdin bo‘lur zohir **sahob** uzra sahob.

Men niyoz uzra niyoz izhor qilsam ollida,
Ko‘rguzur har dam menga ul **oy** itob uzra itob.”[7]

Birinchi misrada yorning yuzi quyoshga ko‘chirilgan. “Ul quyosh” obrazi mahbubaning yuzini oddiy go‘zallik belgisi sifatida emas, balki nur taratuvchi, ko‘zni qamashtiruvchi ilohiy jamol sifatida gavdalantiradi. Quyoshning niqob bilan yopilishi esa yor yuzining hijob ortida qolishini anglatib, lirik qahramonning visolga yetolmayotgan holatini kuchaytiradi. Ikkinchi misradagi “dudi ohim” va “sahob” munosabati yanada e’tiborli. Oshiqning ohidan ko‘tarilgan tutun bulutga, “sahob uzra sahob” esa uning ko‘payib, osmonni qoplagan holatiga ko‘chirilgan. Shu tariqa oshiqning ichki iztirobi tashqi olam manzarasiga aylantiriladi. Uning oh-u fig‘oni shu qadar kuchliki, go‘yo butun osmonni bulut qoplaydi. Bu – lirik kechinmaning mubolag‘ali, ammo ta’sirchan poetik ifodasidir.

Ikkinchi baytda esa “ul oy” obrazi orqali yor oyga ko‘chiriladi. Oy mumtoz she’riyatda yor jamoli, go‘zalligi va latofatining an’anaviy timsoli bo‘lsa-da, bu yerda u “itob” bilan birgalikda qo‘llanib, mahbubaning oshiqka munosabatini ochishga xizmat qiladi. Oshiq “niyoz uzra niyoz”, ya’ni qayta-qayta iltijo va tavozu ko‘rsatsa ham, mahbuba unga “itob uzra itob” – ketma-ket tanbeh va malomat bilan javob beradi. Ayniqsa, “niyoz uzra niyoz – itob uzra itob” takrori lirik kechinmaning kuchini oshiradi. Oshiqning iltijolari takrorlangani sari mahbubaning itobi ham takrorlanadi. Natijada baytda bir tomonda iltijo va ojizlik, ikkinchi tomonda esa beparvolik va jafokorlik qarama-qarshiligi yuzaga keladi. Shunday qilib, Munis bu baytda “quyosh”, “sahob”, “oy” kabi obrazlardan foydalanib, yorning jamoli va oshiqning iztirobini bir-biriga bog‘laydi.

Xulosa qilib aytganda, Munis Xorazmiy lirikasida istiora badiiy tasvirning alohida unsuri bo‘lib, u poetik mazmunni shakllantirish va lirik kechinmani konkret obrazlar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Shoir istioralarni, asosan, yorning jamoli, oshiqning ishqiy holati va hijron bilan bog‘liq kechinmalarni ifodalash jarayonida qo‘llaydi. Yor obrazini yaratishda gul, guliston, g‘azola, sham’, quyosh va oy kabi obrazlar muayyan poetik tizimni hosil qiladi. Oshiqning ruhiy holatini ifodalovchi istioralarda esa boshqa obrazlar tizimi yuzaga keladi. Sham’ va parvona, qush va dom, tig‘ va yuz pora kabi obrazlar ishqning inson ruhiyatiga ta’sirini ochishga yo‘naltirilgan. Bu o‘rinda tashqi predmetga xos belgi ichki holatga ko‘chiriladi: yorning lutf-u jozibasi dom va kamand, oshiqning joni sayd va qush, ruhiy iztirobi esa

[7] Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.60

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







tig‘ bilan yaralangan ko‘ngil sifatida tasvirlanadi. Shunday qilib, Munis Xorazmiy istioralarining asosiy xususiyati ularning alohida-alohida tasvir vositasi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan obrazlar tizimi tarkibida qo‘llanishidadir. Ushbu obrazlar orqali yorning tashqi qiyofasi, oshiqning ichki kechinmalari va ular o‘rtasidagi ishqiy munosabat yagona poetik mazmunga birlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А. Ҳожиаҳмедов. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
2. Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1980.
3. Shermuhammad Munis. O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi. 31-tom. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
4. Jumayev N. Munis g‘azaliyoti (Badiiy mahorat masalalari). –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991